

**KONSTITUTSIONALIZMNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI: KLASSIK VA ZAMONAVIY  
YONDASHUVLAR**

Yaxshimurodova Niginabonu Otabek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistri +998914107330

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada konstitutsionalizmning klassik va zamonaviy talqinlari hamda uning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Klassik yondashuv "higher law" g'oyasi asosida davlat hokimiyatini huquqiy cheklashga tayanadi, zamonaviy konstitutsionalizm esa Peter W. Hogg va Luigi Ferrajoli nazariyalarida institutsional hamda normativ-kafolatli tizim sifatida rivojlanadi. Maqolada konstitutsionalizmning evolyutsiyasi tahlil qilinib, uning nafaqat hokimiyatni cheklovchi, balki inson huquqlarini kafolatlovchi huquqiy tizim sifatidagi mohiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsionalizm, klassik va zamonaviy konstitutsionalizm, higher law nazariyasi, huquq ustuvorligi, davlat hokimiyatini cheklash, inson huquqlari, normativ tizim, konstitutsion huquqlar, siyosiy-huquqiy konsepsiya, huquqiy davlat.

**ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ КОНСТИТУЦИОНАЛИЗМА: КЛАССИЧЕСКИЙ И  
СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОДЫ**

Яхшимуродова Нигинабону Отабек кизи

Ташкентский государственный юридический университет

Магистрант направления «Право государственного управления» +998914107330

**Аннотация**

В данной статье анализируются классические и современные интерпретации конституционализма, а также его теоретические основы. Классический подход опирается на идею «высшего права» и предполагает правовое ограничение государственной власти. Современный конституционализм, в теориях Peter W. Hogg и Luigi Ferrajoli, развивается как институциональная и нормативно-гарантированная система. В статье рассматривается эволюция конституционализма и раскрывается его сущность не только как механизма ограничения власти, но и как правовой системы, обеспечивающей защиту прав человека.

**Ключевые слова:** Конституционализм, классический и современный конституционализм, теория высшего права, верховенство права, ограничение государственной власти, права человека, нормативная система, конституционные права, политико-правовая концепция, правовое государство.

**THE THEORETICAL EVOLUTION OF CONSTITUTIONALISM: CLASSICAL AND MODERN  
APPROACHES**

Yakhshimurodova Niginabonu Otabek qizi

Tashkent State University of Law

Master's student in Public Governance Law +998914107330

## Abstract

This article analyzes the classical and modern interpretations of constitutionalism, as well as its theoretical foundations. The classical approach is based on the idea of “higher law” and emphasizes the legal limitation of state power. In contrast, modern constitutionalism, as developed in the theories of Peter W. Hogg and Luigi Ferrajoli, evolves as an institutional and normatively guaranteed system. The article examines the evolution of constitutionalism and reveals its essence not only as a mechanism for limiting power but also as a legal system that guarantees human rights.

**Keywords:** Constitutionalism, classical and modern constitutionalism, higher law theory, rule of law, limitation of state power, human rights, normative system, constitutional rights, political-legal concept, rule-of-law state.

“Constitutionalism” - bu hukumat vakolati qonunlar yoki konstitutsiya bilan belgilanadi degan ta’limotdir.<sup>1</sup> Ba’zan konstitutsionizm “cheklangan hukumat” tushunchasiga tenglashtiriladi, lekin bu faqat bitta talqin bo’lib, tarixan eng asosiy yoki keng tarqalgan ma’no emas. Umuman olganda, konstitutsionizm hukumatning o’zboshimchalik bilan harakat qilishining oldini olishga qaratilgan tamoyillar majmuini anglatadi.

Konstitutsionalizm - davlat hokimiyatini huquqiy jihatdan tashkil etish, cheklash va legitimlashtirishga qaratilgan siyosiy-huquqiy konsepsiya bo’lib, u huquq ustuvorligi va inson huquqlarining himoyasini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu tushuncha tarixan davlat hokimiyatining o’zboshimchalik bilan amalga oshirilishini cheklash zaruratidan kelib chiqqan bo’lib, zamonaviy davrda u nafaqat hokimiyatni cheklash, balki uni huquqiy me’yorlar orqali tartibga solish mexanizmini ham anglatadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda konstitutsionalizmning mohiyati borasida yagona yondashuv mavjud emas: ayrim olimlar uni asosan davlat hokimiyatini cheklash vositasi sifatida talqin qilsa, boshqalar uni inson huquqlarini kafolatlovchi normativ tizim sifatida baholaydilar. Shu sababli konstitutsionalizm tushunchasi turli nazariy yondashuvlarda turlicha talqin qilinadi.

Mazkur maqolada quyidagi savolga javob izlanadi: konstitutsionalizmning klassik va zamonaviy talqinlari o’rtasidagi asosiy farqlar nimadan iborat? Tadqiqotning maqsadi ushbu nazariyaning evolyutsiyasini tahlil qilish va uning zamonaviy huquqiy tizimdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Klassik konstitutsionalizmning nazariy asoslari davlat hokimiyatini huquqiy jihatdan cheklash g’oyasining tarixiy va intellektual rivojlanishi bilan bevosita bog’liqdir. Ushbu yondashuvda konstitutsiya faqat huquqiy hujjat sifatida emas, balki davlat hokimiyatidan ustun turuvchi normativ tizim sifatida talqin qilinadi. Klassik nazariya konstitutsionalizmni “higher law” (yuqori qonun) g’oyasi orqali izohlaydi, ya’ni davlat hokimiyati o’z vakolatlarini faqat undan ustun turuvchi huquqiy me’yorlar doirasida amalga oshirishi mumkin.

Charles Howard McIlwain va Edward S. Corwin konstitutsionalizmni aynan “higher law” g’oyasi orqali izohlaydi<sup>2</sup>. Ularning yondashuviga ko’ra, konstitutsionalizmning markaziy mohiyati davlat hokimiyatining arbitrar (o’zboshimcha) harakatlarini huquqiy me’yorlar orqali cheklashdan iboratdir. Shu ma’nodan konstitutsiya siyosiy hokimiyatdan ustun turuvchi normativ mezon bo’lib, u ham hokimiyatni legitimlashtiradi, ham uni cheklaydi.

<sup>1</sup> Encyclopaedia Britannica.

<sup>2</sup> Tocqueville's Constitutionalism. Robert P. Kraynak Vol. 81, No. 4 (Dec., 1987), p. 1176

Klassik konstitutsionalizmning ildizlari antik siyosiy-falsafiy tafakkurga borib taqaladi. Aristotl o'z asarlarida "politeia" tushunchasi orqali konstitutsiyani davlatning umumiy siyosiy va ijtimoiy tuzilmasi sifatida talqin qilgan. Unga ko'ra, siyosiy tizim jamiyatdagi hokimiyat munosabatlari va fuqarolar o'rtasidagi tartib bilan belgilanadi. Cicero esa konstitutsiyani "res publica"ning shakli sifatida ko'rib, uni adolat va umumiy manfaat tamoyillariga asoslangan siyosiy tartib deb izohlagan.

Keyingi bosqichda John Locke tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy shartnoma nazariyasi klassik konstitutsionalizmning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Locke fikricha, davlat hokimiyati fuqarolarning tabiiy huquqlarini - hayot, erkinlik va mulk huquqlarini - himoya qilish maqsadida vujudga keladi va shu asosda uning vakolatlari cheklangan bo'lishi lozim. Shu tariqa, konstitutsionalizm g'oyasi huquqiy cheklovlar va tabiiy huquqlar o'rtasidagi muvozanat sifatida shakllanadi<sup>3</sup>.

Klassik siyosiy nazariyada konstitutsiya faqat huquqiy hujjat emas, balki siyosiy tuzilma va hokimiyatni tashkil etish usuli sifatida ham talqin qilinadi. Ushbu yondashuvda davlat shakllari hokimiyatni amalga oshiruvchi subyektga qarab tasniflanadi, ya'ni monarxiya, aristokratiya va demokratiya kabi rejimlar orqali siyosiy tizimlarning tabiati aniqlanadi. Bu esa konstitutsionalizmning dastlabki bosqichlarida uning normativ-huquqiy emas, balki siyosiy-falsafiy kategoriya sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, klassik konstitutsionalizm davlat hokimiyatini cheklash, uni huquqiy me'yorlarga bo'ysundirish hamda siyosiy tartibni adolat va tabiiy huquqlar asosida tashkil etish g'oyalariga tayangan holda rivojlangan. Bu yondashuv zamonaviy konstitutsionalizm uchun nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Hogg tomonidan ilgari surilgan yondashuv asosan konstitutsiyani institutsional - huquqiy cheklov sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy nazariyalarda konstitutsionalizmning mazmuni yanada kengayib, u inson huquqlarini majburiy kafolatlovchi normativ tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Shu ma'noda klassik institutsional yondashuvdan zamonaviy normativ yondashuvga o'tish kuzatiladi.

Peter W. Hogg o'zining *Constitutional Law of Canada* asarida konstitutsionalizmning uch asosiy doktrinal g'oyasini ilgari suradi. Birinchidan, davlat hokimiyati konstitutsiya bilan cheklanganligi g'oyasi - "The need for constitutional protection"<sup>4</sup>. Bu yondashuvda konstitutsiya davlat hokimiyatining chegaralarini belgilovchi asosiy huquqiy instrument sifatida qaraladi va qonun chiqaruvchi organlar ushbu chegaralardan tashqariga chiqadigan qonunlar qabul qila olmaydi.

Ikkinchidan, konstitutsiya davlat hokimiyatining ham manbai, ham uning chegarasi sifatida talqin qilinadi. Bu holat davlat organlarining faqat konstitutsiyada belgilangan vakolatlari doirasida harakat qilishini anglatadi.

Uchinchidan, konstitutsion huquqlarning ustuvorligi tamoyili ilgari suriladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, agar davlat tomonidan qabul qilingan qonun konstitutsion huquqlarni buzsa, u haqiqiy emas deb topiladi va bekor qilinadi. Bu esa konstitutsiyaning qonunlardan ustun turishini ifodalaydi. Umuman olganda, Hogg yondashuvi konstitutsionalizmni institutsional-huquqiy tizim sifatida talqin qilib, konstitutsiyani davlat hokimiyatini cheklovchi va huquqlarni himoya qiluvchi asosiy hujjat sifatida ko'rsatadi.

Zamonaviy konstitutsionalizm nazariyasida Luigi Ferrajoli tomonidan ilgari surilgan "Principia Iuris" (2007) asarida konstitutsionalizmni "kafolatlar tizimi" yondashuv alohida ahamiyatga ega<sup>5</sup>. Uning fikricha, konstitutsiya faqat davlat hokimiyatini tashkil etuvchi hujjat emas, balki "huquq ustidan turgan

<sup>3</sup> Aristotle, *Politics*, Book III; Cicero, *De Re Publica*; Locke, *Second Treatise of Government*.

<sup>4</sup> Peter W. Hogg "Constitutional Law of Canada" §28-28-34, p 28-56.

<sup>5</sup> Luigi Ferrajoli "Principia Iuris" (2007); p 802-804.

huquq” sifatida metanormativ tizimni shakllantiradi. Bu yondashuvga ko‘ra, konstitutsionalizmning asosiy mohiyati faqat hokimiyatni cheklash emas, balki inson huquqlarining amalga oshirilishini majburiy kafolatlovchi tizimni yaratishdir.

Zamonaviy konstitutsionalizm nazariyasi Hogg tomonidan ilgari surilgan institutsional yondashuvni kengaytirib, uni Ferrajoli konsepsiyasida ifodalangan normativ-garantistik model bilan boyitadi. Shu ma’noda konstitutsionalizm nafaqat davlat hokimiyatini cheklovchi tizim, balki inson huquqlarining real amalga oshirilishini ta’minlovchi kompleks huquqiy mexanizm sifatida shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Encyclopaedia Britannica.
2. Tocqueville's Constitutionalism. Robert P. Kraynak Vol. 81, No. 4 (Dec 1987), p 1176.
3. Aristotle, Politics, Book III; Cicero, De Re Publica; Locke, Second Treatise of Government.
4. Peter W. Hogg “Constitutional Law of Canada” §28-28-34, p 28-56.
5. Luigi Ferrajoli “Principia Iuris” (2007), p 802-804.
6. Charles Horward McIlwain. Constitutionalism: Ancient and Modern. – Great Seal Books , 1940